

EPIK ASARLARNI TAHLIL QILISHGA OID KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Otayeva Nafisa Salohiddin qizi

*Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti
universiteti 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Badiiy adabiyot insoniyat hayotini charog'on etishi, inson umriga nurafshonlik baxsh etishi, Epik turning o'ziga xos xususiyatlari haqida, Epik asarlar, insoniylik tarixidagi ahamiyatli voqealarni, tanqid etilgan odamlarning yuksak sifatlarini va ularni asosiy maqsadlari haqida, epik asarlarni tahlil qilish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *badiiy adabiyot, epik asar, xususiyat, insoniylik, sifat, mohiyat, adabiyot, oqibat, mezon, munosabat.*

Abstract: *In this article, fiction illuminates human life, gives light to human life, about the specific characteristics of the epic genre, epic works, important events in the history of humanity, criticized high qualities of people and their main goals, about the analysis of epic works. the word goes.*

Key words: *fiction, epic work, feature, humanity, quality, essence, literature, consequence, criterion, attitude.*

Аннотация: *В данной статье художественная литература освещает человеческую жизнь, освещает человеческую жизнь, об особенностях эпического жанра, эпических произведениях, важных событиях в истории человечества, критике высоких качеств людей и их основных целей, об анализе эпических произведений, как говорится.*

Ключевые слова: *художественная литература, эпическое произведение, особенность, человечность, качество, сущность, литература, следствие, критерий, отношение.*

Adabiyot oddiy so'zga hayotbaxsh qudrat ato etib, insoniyatning eng nozik tuyg'ularini harakatlantiradi, ko'ngil atalmish sirli va mo'jizakor dunyoni taftish qiladi, olam va odamning mohiyati, ular o'zaro munosabatlarining sabab va oqibatlari, yashash mezonlari bilan tanishtiradi. Badiiy adabiyot insoniyat hayotini charog'on etishi, inson umriga nurafshonlik baxsh etib, ma'naviy olamini shakllantirishi va yuksaltirishi, porloq kelajak uchun munosib to'g'ri yo'lni tanlashga yordam berishi, kitobning insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyot ekanligi bois har qanday davr va zamonda kitob o'qish, kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.

Hayotiy ko'lamning kengligi, murakkab insoniy taqdirlar, qahramonlar ruhiyatidagi sanoqsiz tovlanishlar voqealar asosida idrok etilishi lozim bo'lgan epik asarlarda tahlil ham o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Epik asarlarda personajlar

kechinmasini tasvirlash, obrazlar yoki hikoyachi kayfiyati ifodasini berishdan ko'ra, shu tuyg'ularning paydo bo'lish jarayoni, ularning ildizlari ko'rsatilishiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Epik asarlarni badiiy tahlil etish ham ko'lamdor va ko'p bosqichli yechimdir. Epiklikning eng asosiy belgisi: voqeabandlik va tasvirda tafsilot mavjudligidir. Qaysi janrda bo'lishiga qaramay, epik turga mansub asarlarda personajlar ozdir-ko'pdir voqealar qo'ynida tasvirlanadi va ularning tabiatlari hodisalar tasviri asosida namoyon bo'lib boradi.

Tahlillanadigan asar qanchalik yirik, voqealar tasviri qanchalar serqatlam, personajlar soni nechog'lik ko'p bo'lmasin, tahlil mobaynida asarlarning mazmunini qayta so'zlab berish mumkin emas. Buning ikki sababi bor. Birinchidan, tahlilchi qanchalik mahoratli bo'lmasin, badiiy asarni adibning o'ziday aytib berolmaydi va buning zaruriyati ham yo'q. Chunki matn bilan tanishganlar uni bilishadi. Asarni o'qimaganlarga matnning tarovatini bir qadar yo'qotib hikoya qilib berishning esa foydasi yo'q. Negaki, bunda asarning o'zi emas, uning skeleti etib boradi, xolos. Tahlilchi nechog'lik urinmasin, u ayni asarni bitgan yozuvchi bo'lolmaydi. Ayni asarni yorug' olamda ayni shu yozuvchigina yoza oladi. Tahlilchi asar mazmunini hikoya qilishi orqali asardagi qiziqarli voqealarni berishi mumkindir, ammo insoniy xarakterlarni, kechinmalarni, hissiyotlarni, ularni tug'dirgan ochiq-yashirin sabablarni yetkazolmaydi. Tekshirilayotgan asar mazmunini so'zlab berish mumkin emasligining yana bir sababi bu holda matn tahlil qilinmay, asarning barcha unsurlari badiiy elakdan o'tkazilmaydi, binobarin, uning zamiridagi estetik ma'no noma'lumligicha qolaveradi.

Epik asar degani o'zi nima? Epik asarlar adiblar tomonidan yaratilgan madaniy qadriyatga ega qissaviy xabarlarni ifodalovchi asarlar. Bu asarlar odatda yuksak hujjatli, so'nggi o'n yillarda yaratilgan, qiziqarli insoniylik tajribalarini o'z ichiga olgan, katta tajribalar vaqtining uzun davomida bo'lgan voqeliklar to'plamini aks ettiradi. Epik asarlar, insoniylik tarixidagi ahamiyatli voqealarni, tanqid etilgan odamlarning yuksak sifatlarini va ularni asosiy maqsadlari, o'zlashtirishi, alohida, insoniylikning umumiy qadriyatiga moyillik qilgan insonlarni misollar orqali ko'rsatadi.

Epik turning o'ziga xos xususiyatlari haqida gap borganda, avvalo, uning voqeabandlik xususiyati tilga olinadi. Darhaqiqat, epik asarda makon va zamonda bo'layotgan voqea-hodisalar tasvirlanadi, oddiygina so'z vositasida o'quvchi ko'z o'ngida jonlanadigan to'laqonli badiiy voqelik yaratiladi. O'quvchi ko'z o'ngida reallikka o'xshash, o'zining tashqi ko'rinishi va shakli bilan jonlana olgani uchun ham epik asardagi badiiy voqelikni „plastik“ tasvirlangan deb yuritiladi. Epik asarda plastik elementlar bilan bir qatorda „noplastik“ elementlar ham uchraydi. Ushbu elementlar muallif obrazini umumiy tasavvur qilishda qo'l keladi. Epik asarning noplastik elementlari deyilganda muallifning o'y-fikrlari, mushohadalari, ichki kechinmalari, tasviriy predmetga hissiy munosabatlari tushuniladi. Aytilganidek, noplastik elementlar plastik elementlardan farq qilib, o'quvchi ko'z o'ngida jonlanmaydi. Epik turga mansub asarlar asosan nasriy yo'lda yoziladi lekin nasriy yo'lda yozilgan lirik

asarlardan tubdan farq qiladi. Demak, asarning nasriy yo'lda yozilganligi uning epik turga kirishiga asos bo'la olmaydi.

Epik asarda voqea- hodisalarni hikoya qilib berayotgan shaxs „Roviy“ yoki „Hikoyachi“ deb yuritiladi. Epik asarda voqealar birinchi shaxs tilidan yoki uchinchi shaxs (muallif) tilidan ham aytilishi mumkin. Masalan, X.To'xtaboyevning „Sariq devni minib“, E.A'zamovning „Otoyining tug'ilgan yili“, G'afur G'ulomning „Shum bola“ yoki „Yodgor“ kabi asarlarida rivoya birinchi shaxs ya'ni voqealarda bevosita ishtirok etayotgan personaj tilidan hikoya qilinadi.

Epik asarlarni tahlil qilishda uning hajmi, tasvirning murakkablik darajasi hisobga olingan holda ish ko'riladi. Hajm taqozo etsa, asarni badiiy tahlilning avval aytilgan uch usulidan birini yoki barini qo'llagan holda tekshirish zarur. Mabodo, tahlillanadigan asar juda yirik bo'lsa, tahlilchi, albatta, asarning eng qiziqarli, badiiy jihatdan eng muhim, bir qator intellektual-estetik operatsiyalar yordamidagina anglash mumkin bo'lgan jihatini tekshirishi lozim. Buning uchun asar umumiy estetik butunlikka zarar yetkazilmaydigan tarzda badiiy ma'noli qismlarga ajratib olinishi lozim. Bunda o'quvchi diqqatini o'ziga beixtiyor tortadigan, personajlar tabiati yorqin namoyon bo'ladigan, muallif mahorati ko'zga balqib tashlanadigan, qahramonlar ruhiy dunyosi bo'rtiq aks etgan o'rinlar nazardan qochirilmassligi kerak.

Epik asarlarni tahlil qilish, shuningdek ularning me'hmonlarining insonlar va ijtimoiy muhitga o'tqazish jarayonini o'rganish va tahlil qilishdan iboratdir. Epik asarlarni tahlil qilishda muvaffaqiyatli bo'lish uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshirish muhimdir:

1. Kontekstual tahlil: Asar oldidagi miqyos, tarixiy, ijtimoiy va madaniy mazmunni tahlil qilish. Bu mazmunlarning shaxsiy, ijtimoiy va tarixiy hujjatlari orqali o'rganilishi kerak.

2. Bayonotli Tushuncha O'rganish: Asar tushunchalarini tushunish va ularning avtorlik, maqsadlari, xarakterlar, voqealar va ularning eng muhim g'oyalarining tushunchasiga ega bo'lishga intilish muhimdir.

3. Munozara va Tartib: Asar ichidagi munozaralarni, xarakterlar oralig'idagi munaqashalar va ularning rivojlanaishini tahlil qilish, asarda muallifning kiritgan maqallar o'sirishlarini buzish maqsadida qanday vositalar ishlatilganini o'rganish muhimdir.

4. Sintaktik Tahlil: Asarning qurilishi, qismi, til va uning asar farzi uning nazariy til asosidagi o'rni haqida tahlil qilish.

5. Tarixiy Tahlil: Asarning yaratilgan va chaplangan vaqti, uning asosiy sabab-ajratilishi, xalqaro e'tiborini nima sababga tortganligi va ushbu vaziyatning ma'nolari bilan bog'liqligi haqida muvofiqiy tahlil qilish.

Yaratilgan natijalarni asoslangan holda asarlarni tahlil qilishning muhim ahamiyati bor va bu, uning tarixiy, ijtimoiy, ijodiy manbalari boyicha olib borilishi kerak. Bu tahlilning foydalanishi, o'rganishining tezligi, chuqurroq tushuncha olish va o'zlarini rivojlantirishda ko'makchi bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Abduxalilova R. LIRIK VA LIRO-EPIK ASARLARNI O'RGATISH USULLARI // Innovations in Technology and Science Education. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 79-86.
2. Dilmurod Quronov. „Adabiyotshunoslikka kirish“ (o'zbekcha). n.ziyouz.com. Qaraldi: 16-dekabr 2022-yil.
3. 13 Белинский В. Г. Адабий орзулар. -Т.: Ф. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.
4. Adabiyot o'qitish metodikasi./A.Zunnunov, N. Hotamov, J.Esonov, A.Ibrohimovlar hammuallifligida. -Т: O'qituvchi, 1992.